

# Bandlik va mehnat bozori

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Andijon viloyati bo'yicha 2017 yil yanvar-dekabrda mehnat resurslari soni **1722,2** ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan **13,1** ming kishiga, yoki **1,0%** ga o'sishi kuzatildi.

Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni **1404,1** ming nafarni (jami mehnat resurslarining **81,5** %), iqtisodiy nafaol aholi esa **318,1** ming nafarni (**18,5** %) tashkil etdi.

Andijon viloyatida ish bilan band aholi soni **1319,2** ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan **1,7** %ga o'sdi.

## Mehnat resurslari sonining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi (2017 yil yanvar-dekabr, ming kishi)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (**26,8 %**), ta'lim (**7,4 %**), savdo (**12,7 %**), qurilish (**7,3 %**) va boshqa xizmatlar sohasida (**15,3 %**) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

### E'tibor bering:

- Andijon viloyati ish bilan band aholi soni 2016 yilning mos davriga nisbatan **1,7** foizga oshdi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi **84,5** foizni tashkil etdi.

### Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, %da)




## Bandlik va mehnat bozori

Andijon viloyani bo'yicha jami ish bilan band aholi sonida davlat sektorida bandlar ulushi **12,8** % ni, nodavlat sektorda esa **87,2** %ni tashkil etdi.

### Ish bilan band aholi sonining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi

(2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, %da)



Andijon viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: E.Qoraboyev  
(74) 230-82-78